JAMIYATDAGI MAISHIY ZO‘RAVONLIK MUAMMOLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ganiyev Shuxrat Nabiyevich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20320313

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblangan maishiy zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda maishiy zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy turlari, yuzaga kelish mexanizmlari hamda shaxs va jamiyat rivojiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, zo‘ravonlikning psixologik determinatsiyasi, ijtimoiy-madaniy omillari va profilaktik choralar tizimi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari maishiy zo‘ravonlikni bartaraf etishda multidisiplinar yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maishiy zo‘ravonlik, ijtimoiy muhit, agressiya, psixologik omillar, oilaviy munosabatlar, gender tengligi, ijtimoiy deviasiya.

Globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida inson huquqlarini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maishiy zo‘ravonlik jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi, shaxs erkinligi va qadr-qimmatiga tahdid soluvchi muhim ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har uch ayoldan biri hayoti davomida jismoniy yoki psixologik zo‘ravonlikka duch keladi (WHO, 2021). Bu esa mazkur muammoning global xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda maishiy zo‘ravonlik fenomeni sotsiologik, psixologik va kriminologik yondashuvlar asosida o‘rganilib, uning kompleks tabiati ta’kidlanadi (Gelles & Straus, 1988). Maishiy zo‘ravonlik - bu oila yoki yaqin munosabatlar tizimida bir shaxs tomonidan ikkinchisiga nisbatan jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy bosim o‘tkazish shaklidir. Ushbu hodisa inson huquqlarining buzilishi sifatida baholanadi. Sotsiologik yondashuvda (R. Gelles, M. Straus) zo‘ravonlik ijtimoiy strukturalardagi tengsizlik va hokimiyat disbalansi natijasi sifatida talqin qilinadi. Psixologik yondashuv esa uni individual xulq-atvor modeli, shaxsning ichki konfliktlari va emotsional disbalansi bilan izohlaydi. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, zo‘ravonlik xulqi kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Ya’ni, bolalikda zo‘ravonlik muhitida tarbiyalangan shaxslar kelajakda shu xatti-harakatni takrorlashga moyil bo‘ladi (Bandura, 1977). Ilmiy adabiyotlarda maishiy zo‘ravonlik quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1.Jismoniy zo‘ravonlik – bu inson tanasiga bevosita zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar majmui bo‘lib, u zo‘ravonlikning eng aniq va vizual identifikatsiya qilinadigan shakli hisoblanadi. Psixologiya va kriminologiya nuqtai nazaridan, ushbu tur agressiyaning instrumental va affektiv shakllari bilan bog‘liq. Nazariy jihatdan, jismoniy zo‘ravonlik biologik determinizm (agressiyaning tug‘ma komponentlari mavjudligi), psixodinamik yondashuv (ichki konfliktlarning tashqi agressiya orqali ifodalanishi), ijtimoiy konstruktivizm (jamiyat tomonidan “kuch ishlatish”ning legitimlashtirilishi) bilan izohlanadi. Bu turdagi zo‘ravonlik ko‘pincha nazorat va hukmronlikni o‘rnatish vositasi sifatida ishlatiladi. Shaxslararo munosabatlarda kuch ishlatish orqali “dominant-subordinatsion” model shakllanadi, bu esa oilaviy tizimda notenglikni mustahkamlaydi.

2. Psixologik zo‘ravonlikning latent xususiyatida esa psixologik zo‘ravonlik ko‘proq diskursiv va kommunikativ fenomen sifatida talqin qilinadi. U bevosita jismoniy zarar yetkazmasa-da, shaxsning kognitiv va emotsional strukturasini deformatsiya qiladi. bunda doimiy haqorat va tahdidlar shaxsda disfunksional fikrlash sxemalarini shakllantiradi (masalan,

“men qadrsizman”). Ijimoiy-psixologik nuqtayi nazardan shaxs o‘zini boshqalar orqali idrok etadi, shuning uchun muntazam negativ baholash identitet krizisiga olib keladi. Psixologik zo‘ravonlikning eng xavfli jihati – uning yashirinligi (latentligi), normalizatsiya qilinishi va uzoq muddatli travmatik ta’sir doirasiga ega ekanligidadir. Bu turdagi zo‘ravonlik ko‘pincha “ko‘rinmas nazorat mexanizmi” sifatida ishlaydi.

3. Iqtisodiy zo‘ravonlikning strukturaviy tabiatida resurslar ustidan nazorat orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy hukmronlik shaklidir. Bu tur sotsiologik va gender nazariyalari doirasida chuqur o‘rganiladi. Iqtisodiy zo‘ravonlik shaxsni qaror qabul qilish huquqidan, mustaqil yashash imkoniyatidan va ijtimoiy mobilitetdan mahrum qiladi.

Maishiy zo‘ravonlikning ijtimoiy determinantlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Gender stereotiplari va patriarxal tizim- Patriarxal jamiyatlarda erkakning ustun mavqei normativ konstruktsiya sifatida shakllangan. Bu esa zo‘ravonlikni “intizomiy mexanizm” sifatida oqlashga olib keladi.

2. Iqtisodiy beqarorlik va stress modeli sifatida iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo’ladi, bundan tashqari insonlar tabiatida frustratsiya darajasini oshiradi, psixologik bosimni kuchaytiradi hamda konflikt ehtimolini oshiradi. Bu holat stress–agressiya modeli doirasida izohlanadi. Maishiy zo‘ravonlik nafaqat individual, balki ijtimoiy muammo hisoblanib, bunda oilaviy institut degradatsiyasi ko’zga tashlanadi, jamiyatda jinoyatchilik keskin oshishi kuzatiladi, bundan tashqari ijtimoiy kapital pasayadi va ushbu jarayonlar jamiyatda strukturaviy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Maishiy zo‘ravonlikning profilaktik yechimlari sifatida huquqiy mexanizmlarni qonunchilikda himoya orderlari, jazoni kuchaytirish, tezkor aralashuv tizimlarini qo‘llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat jazolash emas, balki profilaktik va reabilitatsion choralar samaraliroq hisoblanadi.

Maishiy zo‘ravonlik murakkab, ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, uning ildizlari iqtisodiy, madaniy va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu muammo shaxsning ruhiy salomatligiga, oilaviy barqarorlikka va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois, unga qarshi kurashish tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Huquqiy, ijtimoiy va psixologik mexanizmlarni uyg‘unlashtirish orqali mazkur muammoni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. *Violence against Women Prevalence Estimates*. Geneva, 2021.

2. Dollard J., Miller N. *Frustration and Aggression*. Yale University Press, 1939.

3. Gelles R., Straus M. *Intimate Violence*. New York: Free Press, 1988.

4. Dutton D. Patriarchy and Wife Assault. *Violence and Victims*, 1994.

5. Tursunova N. Zo‘ravonlik va ijtimoiy himoya: psixologning o‘rni.

6. Mirxodjayeva M. Oilaviy zo‘ravonlik – ijtimoiy muammo sifatida.

7. Walker L. *The Battered Woman Syndrome*. Springer, 2009.

8. Bandura A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, 1977.